

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Shu bois, ushbu yo‘nalishning keng joriy etilishi — bugunning ehtiyoji, ertaning esa zarurati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xalikov A., “Yashil iqtisodiyot asoslari”, Toshkent, 2021.
2. Jahon banki hisobotlari: Renewable Energy and Green Development, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi materiallari, 2022.
4. Hasanov B., “Ekologik innovatsiyalar va barqaror rivojlanish”, Samarqand, 2020.
5. International Energy Agency (IEA). Global Energy Review, 2023.
6. UNEP. Green Technology and Sustainable Development Report, 2022.

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA- TAMOYILLAR, STATISTIK TAHLIL VA ZOMIN TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Omonova Gulmira Abdulatif qizi

*Mirzo ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Psixalogiya fakulteti
Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 242-24 –guruh talabasi*

Email: omonovagulmira15@gmail.com

G‘oyibnazorova Shaxnoza Vahob qizi

Email: bambuchiibijuteriy@gmail.com

Annontatsiya: Mazkur maqolada barqaror turizm konsepsiyasi iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni uyg‘unlashtirib, turizmni atrof-muhit va mahalliy jamoalar farovonligi uchun mas’uliyatli faoliyatga aylantirishi haqida batafsil so‘z yuritiladi. Maqola UNWTO tamoyillari asosida O‘zbekiston kontekstini tahlil qiladi ya’ni iqtisodiy foyda, ekologik muhofaza, ijtimoiy tenglik va madaniy merosni asrash. Jahon va milliy statistikalarda (2024 yilda 8,2 mln sayyoh, 1,83 mlrd dollar eksport) turizm rivojlanganligi ko‘rsatadi, ammo suv tanqisligi va chiqindilar kabi muammolar ham ta’kidlab o‘tiladi. Zomin hududidagi ekoturizm tajribasi muvaffaqiyatli namuna bo‘lib, iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanatni misol qiladi. Maqola barqarorlikni ta’minlash uchun monitoring, jamoaviy javobgarlik hisi va innovatsiyalarni targ‘ib qilishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: barqaror turizm, turizm salohiyati, ijtimoiy barqarorlik tamoyili, ekologik tamoyili, iqtisodiy tamoyili, madaniy tamoyili, barqaror rivojlanish tendensiyalari, turizmning milliy rivojlanish, ekologik barqarorlik

Asosiy qism

Barqaror turizm konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv turizmni faqat iqtisodiy foyda vositasi emas, balki atrof-muhit, madaniy meros va

mahalliy jamoalar farovonligini ta'minlaydigan tizim sifatida talqin etadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tamoyillari asosida barqaror turizm iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy barqarorlikning uyg'un rivojlanishini nazarda tutadi. O'zbekiston sharoitida bu yondashuv so'nggi yillarda davlat siyosati va amaliyotda alohida e'tiborga olinmoqda. Barqaror turizmning iqtisodiy tamoyili turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va mahalliy aholi farovonligiga ta'siri bilan belgilanadi. Turizm daromadlari milliy yalpi mahsulotning muhim qismini tashkil etib, yangi ish o'rinlarini yaratadi, xizmatlar bozorini kengaytiradi va infratuzilmani rivojlantiradi. O'zbekiston misolida bu jarayon Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda yaqqol namoyon bo'lib, hunarmandchilik, gastronomiya va mehmonxona sohalari orqali mahalliy iqtisodiyotning tayanchiga aylangan. Barqaror yondashuv turistlar foydasining adolatli taqsimlanishi, soliqlarning infratuzilma yaxshilashga yo'naltirilishi va kichik biznes uchun imkoniyatlarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Barqaror turizmning ekologik tamoyili tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ularning qayta tiklanishini saqlash va ekologik muvozanatni buzmaslikka qaratilgan. Ekoturizm, tog' va cho'l sayohatlari tabiatni asrash bilan uyg'un olib borilishi zarur. O'zbekistonning Chimgan, Zomin, Aydar-Arnasoy, Surxon tog'li hududlarida ekologik turizm rivoji tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan. Amaliy ifodasi chiqindilarni qayta ishlash, suv va energiya tejash texnologiyalari, havo-tuproq ifloslanishini nazorat qilishdir. Turistlarning ma'suliyatli xulq-atvori, chiqindilarni to'g'ri boshqarish va tabiatga zarar yetkazmaslik -muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy barqarorlik tamoyili turizmning mahalliy jamoalar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Turizm orqali aholi bandligini ta'minlash, loyihalarga ishtirokni kengaytirish va manfaatlarni himoya qilish zarur. O'zbekiston qishloq hududlaridagi agro va ekoturizm loyihalari mahalliy aholi mahsulotini sotish, xizmat ko'rsatish va barqaror daromad orqali ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi, kambag'allikni kamaytiradi va jamoalarning manfaatdorligini oshiradi. Barqaror turizmning madaniy tamoyili milliy va mahalliy merosni asrash, an'analarni saqlash va madaniy xilma-xillikka hurmatni anglatadi. O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz shaharlari, hunarmandchilik va me'morchiligi turizmning tayanchidir. Madaniy barqarorlik tijorat manfaatlari emas, balki merosni avlodlarga yetkazish, yodgorliklarni restavratsiya qilish va ilmiy qiymatni saqlashni nazarda tutadi. O'zbekistonda madaniy merosni asrash va turizmni uyg'unlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

So'nggi yillarda barqaror turizm butun dunyo miqyosida iqtisodiy va ekologik siyosatning ajralmas qismiga aylandi. UNWTO hisobotlariga ko'ra, 2024 yilda global turizm pandemiyadan keyin tiklanib, xalqaro sayyohlar soni 1,4 milliarddan oshdi, bu 2023 yilga nisbatan 11% o'sishni ifodalaydi va 2019 yil darajasining 99% ga yetdi. Bu turizmning barqaror rivojlanishdagi salohiyatini ko'rsatadi. Dunyo tendensiyalari ekologik mas'uliyat, ijtimoiy adolat va mahalliy iqtisodiy foydani mustahkamlashda namoyon bo'lib, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikada “yashil turizm” va ekoturizm faol rivojlanmoqda. BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) doirasida turizm roli kuchaymoqda. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda turizm rivoji jadallashdi ya'ni

2024 yilda xalqaro sayyohlar 8,2 millionni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 17,2% oshgan. O‘zbek fuqarolarining xorijiy sayohatlari ham 31% ga ko‘paygan. Turizm eksporti 2023 yilning 10 oyida 1,83 milliard dollarni tashkil etdi shuningdek YAIMda 5% ulushga ega. Infratuzilma yutuqlariga to‘xtaladigan bo‘lsak Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda mehmonxonalar, aeroportlar va madaniy obyektlar orqali xalqaro integratsiyani kuchaytirdi. 2024 yilda Samarqand va Buxoroda chiqindilarni qayta ishlash va “yashil transport” loyihalari amalga oshirildi. Biroq, suv tanqisligi, chiqindilar va havo ifloslanishi (PM2.5) kabi ekologik muammolar turizmga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek qishloq ekoturizmida 2023 yilda 120 ming sayyoh 220 million dollar daromad keltirgan, aholi bandligini oshirgan. Statistika shuni ko‘rsatdiki turizm jadal rivojlandi, lekin ekologik va infratuzilmaviy muammolar keltirib chiqarganligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Shuning uchun barqaror turizm siyosatni kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahalliy jamoalarni jalb qilish dolzarb vazifadir.

Turizmning jadal rivoji iqtisodiy o‘sish bilan birga jamiyatning ijtimoiy, ekologik va madaniy hayotiga ta‘sir ko‘rsatadi. Barqaror turizm esa bu ta‘sirlarni muvozanatli boshqarishga qaratilgan. Turizm ikki tomonlama ya‘ni iqtisodiy farovonlik va infratuzilma rivoji bilan birga, atrof-muhit bosimi va madaniy buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ijobiy ta‘sirlarini quydagi sohalarda ko‘rishimiz mumkin ya‘ni iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, turizm eksporti valyuta tushumlarini oshiradi, ish o‘rinlari yaratadi va infratuzilmani modernizatsiya qiladi. O‘zbekistonda 2023 yilda turizm eksporti 1,83 milliard dollarni tashkil etdi, 2024 yilda sayyohlar 17% ga ko‘paygan. Qishloq ekoturizmida 2023 yilda 120 ming sayyoh 220 million dollar daromad keltirgan, bandlik va daromadlarni oshirgan. Transport va hunarmandchilik kabi tarmoqlar rivojlanadi. Madaniy muloqot va xalqaro imij mustahkamlanadi, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar milliy qadriyatlar targ‘ibotchisi bo‘lib, xalqlar o‘rtasida bag‘rikenglikni kuchaytiradi. Endi esa o‘z navbatida salbiy ta‘sirlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, u ekologik va ijtimoiy muammolarda, turist oqimi resurslarga bosim o‘tkazadi, chiqindilar va degradatsiyani ko‘paytiradi. 2024 yilda suv tanqisligi va chiqindilar boshqaruvi kamchiliklari qayd etilgan, havo ifloslanishi (PM2.5) sayyoh oqimini kamaytiradi. Tarixiy joylarda arxitektura zarar xavfi ortadi. Ijtimoiy nomutanosiblikni keltirib chiqardi, sezonal ish o‘rinlari barqarorlikni taminlay olmadi. Madaniy degradatsiya ya‘ni tijorat maqsadida qadriyatlar soddalashtiriladi. Yuqoridagi salbiy holatlar inobatga olinib O‘zbekistonda 2024 yilda ekologik loyihalar, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil” transport joriy etildi, salbiy ta‘sirlarni kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlashga harakat qilinmoqda.

O‘zbekiston turizm salohiyati ortib borar ekan, Zomin tumani (Jizzax viloyati) barqaror turizmning muvaffaqiyatli namunasi bo‘lib bormoqda. Hudud tabiiy boyliklari, tog‘li iqlimi va biologik xilma-xilligi bilan ichki va xalqaro sayyohlarni jalb etadi. Bu yerda iqtisodiy rivojlanish ekologik muvozanat, mahalliy jamoalar manfaati va resurslarni asrash bilan uyg‘un model shakllanmoqda. Zomin davlat tabiiy qo‘riqxonasi 26 ming gektarni egallab, 1200 o‘simlik, 30 sutemizuvchi va 100 qush turini o‘z ichiga oladi. 2023 yilda 2,1 km uzunlikdagi kabel yo‘l (133,3 milliard so‘m) va 720 o‘ringa mo‘ljallangan uch mehmonxona qurildi, ish o‘rinlari

ochildi. Turizm o‘sishi chiqindilar, suv-energiya ehtiyojini oshiradi, o‘rmon kesilishi va hayvonot bezovtaligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga bir qator muomalarni ham keltirib chiqardi. Misol uchun fasllik muammosi ya‘ni bahor-yozda oqim yuqori, qishda pasayadi, bu esa barqaror ish o‘rinlarini qiyinlashtiradi. Ijoiy tomoni esa mahalliy aholi mehmonxona, gidlik va transport xizmatlarida faol, farovonlikni oshirdi. Biroq, xizmat sifati va malaka yetarli emas, kadrlarni qayta tayyorlash va ekologik madaniyat oshirish kerak. Shu bilan birgalikda ekologik chora-tadbirlar qo‘lash kerak ya‘ni chiqindilarni qayta ishlash, suv tejovchi texnologiyalar, elektr transport sinovlari va dron-sensorlar joriy etilishi zarur. Agar yuqoridagi tavsiyalar amliy qo‘lansa Zomin tajribasi iqtisodiy manfaat, ekologik himoya va ijtimoiy mas‘uliyat muvozanatini ko‘rsatadi, boshqa hududlar uchun o‘rnak bo‘ladi.

O‘zbekiston turizmida barqarorlikni ta‘minlash iqtisodiy o‘sish bilan ekologik, ijtimoiy va madaniy muvozanatni saqlash uchun zarur strategiyadir. Infratuzilma kengaygan bo‘lsa-da, uzoq muddatli rivoj uchun tizimli yondashuv talab qilinadi. Ekologik boshqaruvni kuchaytirish: tabiiy hududlarda oqim nazorati, monitoring modernizatsiyasi, raqamli hisob, chiqindilarni qayta ishlash va dron-sensorlar joriy etish zarur. SHu bilan birgalikda atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchi nodavlat tashkilotlar bugungi kunda katta ahamiyatga ega.

Solishtirma tahlil shuni ko‘rsatadiki, Greenpeace global miqyosda katta auditoriya va resurslarga ega bo‘lib, ekologik muammolarni yoritishda samarali ta’sir ko‘rsatadi. Zamin Foundation esa O‘zbekiston sharoitida real amaliy yechimlar taklif qiladigan, atrof-muhit va ijtimoiy muammolarni birgalikda hal qiladigan tashkilot sifatida ahamiyatlidir. Ushbu ikki tashkilot o‘z maqsadlariga erishishda turli strategiyalar va resurslardan foydalanadi: Greenpeace global va ommaviy aksiyalarga tayanar ekan, Zamin Foundation mahalliy va barqaror loyihalarni amalga oshiradi. Shuni hisobga olgan holda, Greenpeace’ning muvaffaqiyatli tajribasi Zamin Foundation faoliyatida samarali joriy etilishi mumkin. Jumladan:

1.Greenpeace o‘z loyihalarini global auditoriyaga yetkazish uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va vizual aksiyalardan keng foydalanadi. Zamin Foundation ham mahalliy loyihalarini kengroq auditoriyaga yetkazish uchun media va ijtimoiy tarmoqlarda shunday strategiyani qo‘llashi mumkin. Bu xabardorlikni oshiradi va donorlar hamda homiylarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi.

2.Greenpeace har bir loyihani ilmiy tadqiqotlar va aniq dalillar asosida rejalashtiradi. Zamin Foundation ham loyihalarni amalga oshirishda mahalliy ekologik va ijtimoiy tadqiqotlarni olib borish, natijalarni tahlil qilish orqali samaradorligini oshirishi mumkin

3. Greenpeace global tarmoq orqali boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qiladi. Zamin Foundation ham shunga o‘xshash tarzda xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish, grantlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish orqali o‘z loyihalarining ko‘lamini kengaytirishi mumkin.

4. Greenpeace uzoq muddatli strategiya asosida ekologik maqsadlarga erishadi. Zamin Foundation ham mahalliy loyihalarni faqat qisqa muddatli aksiyalar sifatida emas, balki barqaror rivojlanish va strategik rejalashtirish asosida amalga oshirish orqali ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, Greenpeace'ning global miqyosdagi muvaffaqiyatli tajribasi Zamin Foundation faoliyatida mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etilishi mumkin. Bu esa Zamin Foundation'ning O'zbekiston sharoitida ekologik va ijtimoiy loyihalarni yanada samarali va keng qamrovli amalga oshirishiga xizmat qiladi. Shuningdek mahalliy aholini jalb qilish ya'ni aholini loyihalarga kiritish, manfaatlarni himoya qilish, o'quv dasturlari (xizmat sifati, tillar, ekologik madaniyat) joriy etish orqali daromadlarni adolatli taqsimlash ijtimoiy barqarorlikni oshirish mumkin. Infratuzilma va transportga to'xtaladigan bo'lsak “yashil transport” (elektr avtobuslar, veloyollar, qayta tiklanuvchi energiya) ni turizm zonalarida kengaytirish, tog'li joylarda elektr vositalar va piyoda marshrutlarni tashkil etish ekologik yukni kamaytiradi. Madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha esa Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda restavratsiya va arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish, “madaniy ekoturizm” konsepsiyasini joriy etish tarix va tabiat uyg'unligini namoyish etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda albatta ta'lim va targ'ibot, ekologik ongni oshirish uchun o'quv dasturlari ishlab chiqilib, OAV va blogerlar orqali chiqindisiz turizm va mahalliy qadriyatlarni asrash ko'rsatib berilsa barqarorlikni muvaffaqiyatli asrashga erishish mumkin. Shuningdek zamon talablariga mos ravishda ilmiy-innovatsiyalarni integratsiya qilish zarur ya'ni GIS, “aqlli turizm” va tezkor ma'lumot tahlili orqali monitoring va oqim boshqaruvi, muammolarni oldindan aniqlash mumkin. Umuman, tavsiyalar iqtisodiy manfaat, ekologik himoya, ijtimoiy adolat va madaniy meros muvozanatini yo'lga solib beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir loyiha shu tamoyillar asosida baholansa, O'zbekiston global barqaror turizm namunasi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda barqaror turizm O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki ekologik muvozanat, ijtimoiy adolat va madaniy merosni saqlashning strategik yo'nalishi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ko'rib chiqilganidek, jahon tendensiyalari va milliy statistikalar turizmning jadal rivojini tasdiqlab, 2024 yilda 8,2 million sayyoh va 1,83 milliard dollarlik eksport orqali YAIMga 5 foiz ulush berayotganini ko'rsatadi. Biroq, suv tanqisligi, chiqindilar va havo ifloslanishi kabi muammolar salbiy ta'sirlarni kuchaytirib, barqarorlikni xavf ostiga qo'yadi. Zomin hududidagi tajriba iqtisodiy foyda, ekologik nazorat va mahalliy jamoalarni jalb qilish muvozanatini muvaffaqiyatli namoyish etadi, bu boshqa mintaqalar uchun o'rnak bo'ladi. SHu bilan birga zamin foundation loyhasini xalqaro darajadagi greenpeace lohisi bilan o'xshash tomonlarini ko'rishimiz mumkin va greenpeacening yutuqlarini zamin foundationda qo'lasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman, barqaror turizmni rivojlantirish uchun ekologik monitoring, "yashil" infratuzilma, ta'lim dasturlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. Shu orqali O'zbekiston global miqyosda mas'uliyatli turizm yetakchisiga aylanishi mumkin, kelajak avlodlarga boy tabiat va madaniy merosni yetkazib beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://www.booking.com/hotel/uz/zamin>
2. O‘zbekistonda 2024 yil uchun Turizmning asosiy statistik ko‘rsatkichlari. (2024). (O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi/Statistika agentligi ma’lumotlari).
3. Future of the Travel and Tourism. (WEF hisoboti).
4. Environment and Tourism. Routledge.
5. UNWTO. (2020).
6. Zamin Foundation <https://zaminfoundation.ngo/en>
7. Greenpeace International - Greenpeace International
<https://share.google/n2ocgZlswf2xbvCI5>
8. https://gov.uz/en/eco/news/view/22746?utm_source
9. https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/3651?utm_source
10. https://kun.uz/en/88197862?utm_source

YASHIL BIZNES MODEL VA EKOLOGIK TADBIRKORLIK

Abdusamatova Aziza Alijon qizi

Jizzax shahar 2-sonli politexnikumi maxsus fan o‘qituvchisi

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida ekologik barqarorlik masalalari keskin kun tartibiga chiqdi. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, sanoat chiqindilarining ko‘payishi va atrof-muhitning degradatsiyasi yangi iqtisodiy yondashuvni – yashil iqtisodiyot va uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan yashil biznes modelini shakllantirishga sabab bo‘lmoqda. Yashil biznes, avvalo, iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ham ta‘minlaydigan tadbirkorlik faoliyatidir. U innovatsion texnologiyalar, resurs tejamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni minimallashtirish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Mazkur maqolada yashil biznes modeli, uning afzalliklari, ekologik tadbirkorlikning zamonaviy yo‘nalishlari, O‘zbekiston tajribasi hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

1. Yashil biznes modeli tushunchasi va mohiyati

Yashil biznes modeli – korxonaning iqtisodiy faoliyatini ekologik barqaror yo‘l bilan tashkil etish strategiyasidir. Uning markazida ekologik xavfsizlik, energiya tejamkorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillari turadi.

Yashil biznes quyidagi xususiyatlarga ega:

- Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan yoki minimal zarar yetkazadigan jarayonlardan foydalanish;
- Qayta tiklanuvchi manbalarga asoslangan ishlab chiqarish;